

# SAMARQAND VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA’LUMOT

2021- yil 1- iyun holatiga ko‘ra  
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)



Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.


Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxona va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

Korxona va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2021- yil 1- iyun holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

## Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni


*(2021 yil 1-iyun holatiga ko'ra, birlikda, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan )*



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiylar o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z or'-nida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bos-qichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

### Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

*(1-iyun holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati bilan)*



# Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni


(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha  
2021- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)

4



## Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)



■ 2020- y. ■ 2021- y.

## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-may oylarida)



## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(yanvar-may oylarida, birlikda)

2019 y.  
4 550

2020 y.  
3 223

2021 y.  
4 037


## Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

(2021- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)

	<b>38 544</b> - Ro'yxatdan o'tgan
<b>2 263</b> kichik korxonalar	<b>36 281</b> - mikrofirmalar
	
	<b>36 622</b> - Faoliyat ko'rsatayotgan
<b>2 222</b> - kichik korxonalar	<b>34 400</b> - mikrofirmalar
	
	<b>3 791</b> - Yangi tashkil etilgan (2021- yilda)
<b>156</b> - kichik korxonalar	<b>3 791</b> - mikrofirmalar


## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)



## Oilaviy korxonalar soni

*(1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)*



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2021- yilning 1- iyun holatiga ko'ra 8 191 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 654 taga yoki 47,9 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 7 738 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 567 taga yoki 49,6 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar-may oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 1 159 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 193 taga yoki 20,0 % ga ko'payganligini ko'rish mumkin.


## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni

*(1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)*

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2021- yilning 1- iyun holatiga ko'ra 22 754 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4 911 taga yoki 27,5 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 21 796 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4 988 taga yoki 29,7 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


2021- yilning yanvar-may oyida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2 331 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 616 taga yoki 35,9 % ga ko'payganligini ko'rish mumkin.



# Xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni

(2021- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)

8



Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 2021- yil 1- iyun holatiga ko'ra 633 tani tashkil etib, ulardan 619 tasi yoki 97,8 %i faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 87 taga yoki 16,3 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar-may oylarida viloyatimizda 42 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

## Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-may oylarida, birlikda)

	2020 y.	2021 y.
Jami	37	42
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	9	6
Sanoat	16	16
Qurilish	3	1
Savdo	5	8
Tashish va saqlash	2	1
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1	-
Axborot va aloqa	-	2
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	-	1
Boshqa turlar	1	7

# Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni

(2021-yil 1-iyun holatiga ko'ra, birlikda)

9



## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni


(1-iyun holatiga ko'ra, birlikda)

	72-Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi
	316-Sanoat
	37-Qurilish
	97-Savdo
	15-Tashish va saqlash
	18-Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
	7-Axborot va aloqa
	8-Sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish
	49-Boshqa turlar

# Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)

10



**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi  
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**  
(2021- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)

11


	Jami	<i>shundan:</i>	
		qo'shma korxona	xorijiy korxona
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>619</b>	<b>431</b>	<b>188</b>
<b>Samarqand sh</b>	<b>271</b>	<b>172</b>	<b>99</b>
<b>Kattaqo'rg'on sh</b>	<b>22</b>	<b>17</b>	<b>5</b>
<b>tumanlar:</b>			
<b>Oqdaryo</b>	<b>34</b>	<b>29</b>	<b>5</b>
<b>Bulung'ur</b>	<b>24</b>	<b>10</b>	<b>14</b>
<b>Jomboy</b>	<b>42</b>	<b>35</b>	<b>7</b>
<b>Ishtixon</b>	<b>15</b>	<b>9</b>	<b>6</b>
<b>Kattaqo'rg'on</b>	<b>10</b>	<b>9</b>	<b>1</b>
<b>Qo'shrabot</b>	<b>22</b>	<b>11</b>	<b>11</b>
<b>Narpay</b>	<b>4</b>	<b>3</b>	<b>1</b>
<b>Payariq</b>	<b>17</b>	<b>11</b>	<b>6</b>
<b>Pastdarg'om</b>	<b>29</b>	<b>22</b>	<b>7</b>
<b>Paxtachi</b>	<b>9</b>	<b>4</b>	<b>5</b>
<b>Samarqand</b>	<b>41</b>	<b>32</b>	<b>9</b>
<b>Nurobod</b>	<b>14</b>	<b>13</b>	<b>1</b>
<b>Urgut</b>	<b>52</b>	<b>44</b>	<b>8</b>
<b>Toyloq</b>	<b>13</b>	<b>10</b>	<b>3</b>

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Samarqand shahrida 271 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 43,9 %), Urgut 52 ta (8,4 %), Samarqand 41 ta (6,6 %), eng kamlari esa Narpay 4 ta (0,6 %), Paxtachi 9 ta (1,4 %) hamda Kattaqo'rg'on 10 ta (1,6 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

# Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2021- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)

12



2021- yil 1- iyun holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi, Samarqand shahrida (29,2 %), Urgut (8,7 %), Pastdarg'om (8,4 %), Samarqand (7,4 %), Payariq hamda Ishtixon (5,3 %), Kattaqo'rg'on (4,9 %), Toyloq (4,3 %), Oqdaryo (4,0 %), Bulung'ur (3,9 %), Jomboy (3,8 %) Kattaqo'rg'on shahri (3,4 %), Narpay (3,3 %), Nurobod (3,0 %), Paxtachi (2,6 %) va Qo'shrabot (2,4 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2021- yil yanvar-may oylarida, birlikda)


2021- yil yanvar-may oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Samarqand shahrida (25,1 %), Pastdarg'om (9,0 %), Urgut (8,3 %), Samarqand (7,7 %), Ishtixon hamda Oqdaryo (5,4 %), Kattaqo'rg'on (4,9 %), Payariq (4,8 %), Toyloq (4,6 %), Nurobod (4,2 %), Jomboy (4,3 %), Bulung'ur (3,8 %), Paxtachi (3,6 %), Narpay (3,5 %), Kattaqo'rg'on shahri (3,1 %) va Qo'shrabot (2,5 %) tumanlari ulushiga tegishli.



# Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimidagi soni


(2021- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)

13



## Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni


(2021- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)



2021- yil 1- iyun holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi, Samarqand shahrida (35,6 %), Urgut (8,2 %), Samarqand (7,6%), Pastdarg'om (7,0%), Kattaqo'rg'on (5,1 %), Payariq (4,6 %), Kattaqo'rg'on shahri (4,4 %), Oqdaryo (3,8 %), Jomboy, Bulung'ur, Nurobod hamda Ishtixon (3,7 %), Toyloq (3,1 %), Paxtachi (2,2 %), Qo'shrabot (2,1 %), hamda Narpay (1,4 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqdi.

**Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning  
qo'shma korxona va xorijiy korxonalarga taqsimlanishi**  
(2021- yil 1- iyun holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, %da)

14




2017-2021- yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

# Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining hududlar bo'yicha soni

(2021-yilning yanvar-may oylarida, birlikda)


15



2021-yilning yanvar-may oylarida, yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar hududlar kesimida taqsimlanganda Samarqand shahrida (18,6 %), Pastdarg'om hamda Samarqand tumani (12,6 %), Urgut (9,3 %), Payariq hamda Oqdaryo (7,1 %), Toyloq (5,4 %), Ishtixon (5,3 %), Jomboy (5,2 %), Bulung'ur, Narpay hamda Kattaqo'rg'on (4,5 %), Kattaqo'rg'on shahar hamda Paxtachi (1,1 %), Qo'shrabot (0,9 %) va Nurobod (0,3 %) tumanlari ulushga ega.

## Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(2021-yilning yanvar-may oylarida, birlikda)



## Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** – axborot-ma'lumotnomaga tusidagi, vaqtiga vaqtiga bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikasiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrinda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

**Kichik korxona va mikrofirmalar** – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirdorlik subyektlariga ajratiladi.

The screenshot displays the official website of the State Statistics Committee of Uzbekistan (O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi). The main navigation menu includes links for 'ASOSIY SAHIFA', 'QO'MITA HAQIDA', 'AXBOROT XIZMATI', 'INTERAKTIV XIZMATLAR', 'OCHIQ MA'LUMOTLAR', 'MUROJAATLAR', and 'KONTAKTLAR'. The central content area features a search form for 'Statistik klassifikatsiyalar' (Statistical classifications), specifically for 'Taqdim ettiladigan hisobotlar ro'yxati' (List of submitted reports) and 'Korxona pasporti' (Enterprise passport). The right sidebar lists various 'FOYDALI MA'LUMOTLAR' (Useful Information) such as the 'Ahollini ro'yxtatga olish-2022' (Registration of enterprises-2022), 'Harakatlar strategiyasi' (Strategic plan), and 'Press-relejzlar' (Press releases).

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining [www.stat.uz](http://www.stat.uz) rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Statistik registrlarni yuritish  
bo`limi**  
**Tel.: 66 235-14-42**